

“LAZGI” RAQSI TARIXI VA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Ko‘palova Olmaxon Qadamboy qizi

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali talabasi

Elektron pochta: olmaxonkopalova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada nomoddiy-madaniy merosimiz bo‘lgan “Lazgi” raqsining tarixi yoritilgan. Shuningdek “Changak lazgi” raqsining tarixi, ijro uslubi hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Avesto”, raqs san’ati, “Lazgi”, Oqdarband, “Changak lazgi”, ijro, uslub, tana harakatlari, takt.

Аннотация: В статье описана история танца «Лазги», который является нашим нематериальным культурным наследием. Об истории, стиле исполнения и значении танца «Чангак лазги» сегодня также пойдет речь.

Ключевые слова: «Авеста», танцевальное искусство, «Лазги», Акдарбанд, «Чангак лазги», исполнение, стиль, телодвижения, такт.

Abstract: The article describes the history of the "Lazgi" dance, which is our intangible cultural heritage. The history, performance style and importance of the dance "Changak Lazgi" today will also be discussed.

Key words: "Avesta", dance art, "Lazgi", Akdarband, "Changak Lazgi", performance, style, body movements, tact.

Hozirgi kunda O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzolalar, olim-u ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Uch ming yillik davlatchilik an‘analariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi, madaniyati va san‘ati alohida o‘rin tutadi. Akademik A.Muhammadjonov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Qadimgi Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiati, shubhasiz, faqatgina qadimiy aholisining turmush tarzini belgilabgina qolmay, bu diyorda yuzaga kelgan qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta’sir etgan”¹ deb fikr bildirganligi bu sehrlı diyorning naqadar ulug‘vorligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda dunyo yangilanmoqda. Yangi zamon, yangi fikr va yangicha dunyoqarashlarning shakllanish davrida istiqloq nafaqat xalqimiz hayotida, balki tafakkurida ham juda katta o‘zgarishlar yasadi. Etnograf olim Iso Jabborovning

¹ Muhammadjonov A. Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zgusi. T.: «O‘zbekiston», 2015. - B.141

fikricha, “Arxeologlar tadqiq etgan turli antik davr obidalardagi o‘yma va rangli rasmlarda surnay, nay, nog‘ora, har xil turli asboblar va turli niqoblar tasvirlangan”². Bizning fikrimizcha, niqoblar o‘z-o‘zidan “Masxaraboz Lazgisi”ning yaratilish va shakllanish bosqichlari bilan bog‘liq. Akademik S.P.Tolstovning fikricha, o‘rta asrlarga kelib, odamlar mehmonxonalar, choyxonalarda yig‘ilib, holdan toyguncha olovga qarab o‘yin tushgan bo‘lsalar, XIX asrda erkaklar davra aylanib, og‘ziga issiq temirni qistirib, qo‘lida olov bilan raqs tushganlar. Gerodotning “Tarix” kitobida yozilishicha: “Amudaryo bo‘yida yashovchi massagetlar kechalari gulxan yoqib, olov o‘chgunicha qo‘shiq aytib, olovni ulug‘lab raqsga tushganlar. “Lazgi” raqsi o‘z o‘rnida insoniylik va bag‘rikenglik (tolerantlik) ruhini yoyishga xizmat qiladi.

Raqs san‘ati qadimdan inson bilan birga yashab, avloddan-avlodga necha asrlardan buyon zavq-u shavq ulashib, butun insoniyatni o‘zining sehriga tortib, jamiyatlar o‘rtasidagi do‘stlikni birlashtirib kelgan. Mazkur san‘at turi inson huquq va erkinliklariga rahna solmaydi, aksincha, millatlararo do‘stlik va birodarlik tuyg‘ularini shakllantiradi, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlaydi.

Xorazm Lazgi raqsi YUNESKO tomonidan 2019-yil 12-dekabrda jahon nomoddiy madaniy merosi representativ muhofazasiga kiritilishi, uning muhofazasi davlat tomonidan kafolatlanishini ta‘minlashi bilan bir qatorda mahalliy va milliy darajada aholining estetik didini va hayotga muhabbatini oshirishga xizmat qildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta‘kidlash joizki, hozirgacha YUNESKO tomonidan Turkiyaning “Mavlavi samo” (2005), Argentinaning “Tango” (2009), Peruning “Qaychi” (2010), Hindistonning “Chxau” (2010), Fransiyaning “Maloya” (2009), Ispaniyaning “Flamenko” (2010), Malavining “Mvinogi” (“Quvonch”) (2014), Saudiyaning “Al-mizmar” (2016), Keniyaning “Uokanada”, Kubaning “Rumbo” (2016) kabi 15 ga yaqin raqslar representativ ro‘yxatga kiritilgan.

Raqsning barcha turlari kabi “Lazgi” raqsining ham o‘ziga xos tarixi bor. Bu tarix mana shu mo‘tabar zaminimizda asrlar osha yashagan ona xalqimiz taqdiri bilan hamohang kechgan. Mutaxassislar “Lazgi” raqsi tarixining ayrim harakatlarini inson yaralishi bilan bog‘laydi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto” ham ushbu raqs shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

“Lazgi” raqsining shakllanishida Xorazmning qishi qattiq kelishi ham o‘z aksini qoldirgan. Xususan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Xorazmda faqat 40 kun issiq bo‘lishi, qolgan oylar nisbatan salqin va sovuq bo‘lishini ta‘kidlagan bo‘lsa, Xorazmga tashrif buyurgan ajnabiy tarixchilar Ibn Fadlon va Abu Mansur as-Saolibiyalar ham o‘z asarlarida masalan, “Idilga sayohat”, “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” (Asr

² Jabborov I. Jahon xalqlari etnografiyasi. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1985. B.-269.

ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi) kabi asarlarda bu o'lkaning sovuq iqlimi haqida xabar bergan. Shu bois, ayrim mutaxassislar raqsdagi titramalar — forsiy “larzidan” so‘zining o‘zagi ushbu raqs nomini belgilaganini aytadilar.³ Qadimiy sanskrit tilida ham “lasya” — “raqs”, “lasaka” — “raqqos” ma’nosini berishi qayd etiladi.

“Lazgi” raqsi tarixini mutaxassislik nuqtayi nazaridan o‘rgangan inson O‘zbekiston xalq artisti, professor Gavxar Matyoqubova bu sehrli raqsning bir-biridan farqlanadigan to‘qqiz turi borligini isbotlab bergan edi. “Lazgi” turkumiga kiruvchi eng mashhur raqslardan biri “Changak Lazgisi”dir.

“Changak Lazgisi”ning nihoyatda qiziqarli tarixi bor. O‘tmishdan ma’lumki, asrlar davomida davlatlar tashkil topishi bilan katta-kichik urushlar bo‘lib, qudratlilar o‘jizlarni bosib olib o‘ziga bo‘ysundirganlar. Bu jarayon elatlarni asta-sekin obyektiv va subyektiv omillar orqali birining biriga singib ketishiga sabab bo‘lgan. Qo‘shko‘pir tumanidagi hozirgi Oqdarband qishlog‘ida Xorazmning hech bir joyida uchramaydigan manzaraga duch kelish mumkin. Bu qishloqning odamlari o‘zining tashqi ko‘rinishi, odobi, tili va udumlari bilan ajralib turishadi. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Chunki bu qishloqda qadimdan shu maskanni vatan tutib, el bo‘lib qolgan eroniylar yashaydilar. Xilma - xil fojialarni boshdan kechirgan, turli istilochilar tomonidan bosib olingan xalq, mutlaqo begona davlatlarning ta’siriga o‘tgan bo‘lsa ham yerlik aholi o‘zining ko‘p yillik tarixi davomida milliy xususiyatlarini hozirgi davrgacha saqlab kelmoqdalar. Ma’lumki, jahonda o‘zini mutlaqo sof, boshqa xalq (davlat) bilan chatishib ketmaganligini da’vo qiladigan birorta elat, xalq yo‘q. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida, turli elatlar bilan aloqada bo‘lishi tabiiy holdir. Ba’zan bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib ketib boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o‘ziga singdirib yoki tarkibiy qismi qilib olinishi natijasida shakllanib kelganligini tarixiy faktlardan ham bilib olish mumkin. Bu haqdagi eng aniq ma’lumotlar Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyoziy -ud-davla” nomli asarida yozib qoldirilgan.

Oqdarbandlik forsiylarning Xorazmga ko‘chirilib keltirilishi haqida hanuzgacha xalq og‘zaki ijodida saqlanib kelayotgan turli xil rivoyatlar ham mavjud. Bir rivoyatda aytilishicha, Xiva xoni Madaminxonning Eron davlati ustiga yurishi Xiva lashkarlariga Darband qal’asi atrofida jang qilishiga to‘g‘ri kelgan. Shiddatli janglarning birida Xiva xoni Madaminxon eronliklar tomonidan o‘ldiriladi. Bundan g‘azablangan xivaliklar o‘z xoni jasadini Eron shohi oldiga olib borib, uning uchun xun talab qilganlar. O‘sha zamondagi qonun qoidaga ko‘ra janglarda xonlarni qatl etish man etilgan. Shu boisdan ham Eron shohi Xiva xoni xuni uchun xivaliklar undan nimaniki talab qilsalar shuni berishga rozi bo‘lgan. Xivaliklar paytdan foydalanib, Eron shohidan jang maydonida

³ G.Matyoqubova “Ofatijon lazgi” Adabiyot va san’at nashriyoti.Toshkent — 1993-yil.

jasorat ko‘rsatgan Darband qal’asida istiqomat qiluvchi aholining hammasini oilasi bilan berishni va ularni Xorazm diyoriga ko‘chirib ketishni talab qilganlar. Shu tariqa Darband aholisining barchasi o‘z oilasi bilan ko‘chirilib keltirilib, bir tomoni qum, ikkinchi tomoni ko‘l, uchinchi tomoni Xiva xonligiga xavf solib turgan turkmanlar bilan chegaradosh kanali bo‘yidagi (hozirgi Oqdarband) qishlog‘iga joylashtirilgan. Shundan keyin bu joy Oqdarband qishlog‘i nomi bilan atala boshlagan. Zero, qishloq ahlining o‘ziga xos urf-odat va marosimlari borki, ulardan ayrimlarining ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Yillar o‘tishi bilan ozchilik bo‘lgan eroniylarga ko‘pchilik bo‘lgan yerli xalqning urf-odatlari, madaniyati va san’ati o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Natijada, Eron xalqining urf-odati va milliy raqslari ta’sirida yangicha uslubda “Eroniylar ya’ni “Changak lazgi”si paydo bo‘ladi

“Changak lazgi” raqsini qadimdan ekraklar ijro qilgan. Bu raqsning ijrosida avval “lazgi” kuyi chalinadi. Raqqos shaxdam qadamlar bilan davraga yugurib chiqadi va qo‘llarini kuyga mos holda havoda silkitib davrani aylanib, markaziga kelganda birdan harakatdan to‘xtab qotib qoladi. Kuyning nolasiga monand raqqosning qo‘llari 2-3 takt davomida qotib turaveradi. Musiqa ijrosi bilan asta-sekin oldin barmoqlar, panjalar so‘ng yelkalar va raqqos tanasining barcha qismi harakatga kela boshlaydi. Bu raqsning nomlanishiga monand raqqos asta-sekin qo‘llarini bukib, xuddi changakdek qayiradi. Raqqos changak qilib qayirgan qo‘liga qarab tebrana boshlaydi. Changak bo‘lgan qo‘llar asta tushib, gavda changak bo‘la boshlaydi. Raqqos xuddi azon aytayotgandek, o‘ng qo‘lini qulog‘iga tekkizib, chap qo‘lini yana changak qiladi. Shu holda raqqosning oyoqlari harakatga kelib, qimirlay boshlaydi. Avvaliga ikkala oyoqni ham harakatga keltiradi, keyin bir oyog‘ini changak qilib, bir oyog‘ini yerga ozgina teqqizib, turgan joyida bir oyoqlab aylanadi. Tizzasini ozgina bukib, birdan yana harakatdan to‘xtab qotadi. Keyin musiqaga hamohang holda o‘ng qo‘lini qarsillatib, chap qo‘li bilan o‘ng yelkalariga uradi. Bu harakatni qo‘llarning o‘rnini almashtirgan holda takrorlaydi. So‘ngra raqqos tanasining yarmi (beldan yuqorisi) qotgan holda goh o‘ng tomonga, goh chap tomonga, oyoq tinch turgan holda chayqala boshlaydi. Keyin o‘tirgan holatda tizzalarini yerga tekkizib-tekkizmay xuddi charxpalakdek aylanadi. Raqqos butun vujudi bilan changak bo‘la boshlaydi. Qo‘llarini samoga ko‘tarib qarsillatib, epchil, yengil harakatlar bilan tezlashib tizzasini yerga tekkizib olib yana qotib qoladi. Kiyin oyoqlar changak bo‘ladi, qo‘llar birin-ketin yelka, bosh, ko‘krakka ura boshlaydi.

Bu harakatlar ikki xalqning madaniyati va san’ati aralashuvi natijasida paydo bo‘lgan “Changak lazgi”sining asosiy elementlaridir. “Changak lazgi”sining boshqa lazgilarga qaraganda farqli tarafi shundaki, bu raqs ijrosida ijrochi qotma holatga ko‘proq kirishi, qo‘l va oyoqlarini changakdek egiluvchan holatga olib kelib turli harakatlarni bajarishidadir. Bu harakatlarni bajarayotganda raqqosning qo‘llari va oyoqlari qotadi, ammo harakat bajarayotganda gavda egiluvchan bo‘lib, tana

bo'shshib sehrlil va jozibali raqs harakatlarni ifodalaydi, tomoshabinlarga zavq bag'ishlaydi.

Bugungi kunda "Changak lazgi" xalqimiz orasida bayramlarda, to'y-tomoshalarda, bazmlarda san'at ixlosmandlari va qiziquvchilar tomonidan ijro etilib, insonlarning ichki bir emotsiyalarni jilolashda, madaniy va jismoniy hordiq olishda asosiy raqslardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Qilichev "Xorazm xalq teatri" Toshkent — 1988-yil, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Jabborov I. Jahon xalqlari etnografiyasi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1985.
3. G.Matyoqubova, Ofatijon "Lazgi", Toshkent — 1993-yil. Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Muhammadjonov A. Tarix falsafasi – ma'naviyat ko'zgusi. T.: «O'zbekiston», 2015.